Toshkent davlat yuridik universiteti rektori
Xodjayev Baxshillo Kamolovichning
korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha
M U R O J A A T I

Hurmatli professor-o‘qituvchilar, xodimlar va aziz talabalar!

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf soladigan, adolat va qonun ustuvorligiga putur yetkazadigan, davlat organlari hamda ta’lim muassasalariga nisbatan ishonchni susaytiruvchi salbiy illatdir.

Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganidek, **“Korrupsiya — davlat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid”.** Shu bois Yangi O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Toshkent davlat yuridik universitetida ham korrupsiyaning oldini olish, uning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish, ochiqlik, shaffoflik va qonuniylik tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Xodimlar va talabalarning odob-axloq kodeksi, Korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berish tartibi to‘g‘risidagi nizom, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga oid ichki hujjatlar hamda boshqa komplayens mexanizmlari qabul qilinib, amaliyotga to‘liq joriy etildi.

Shuningdek, universitetda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi faoliyati yo‘lga qo‘yildi, ishga qabul qilish jarayonlari ochiq tanlovlar asosida tashkil etilmoqda, davlat xaridlari va boshqa xavfi yuqori jarayonlarda korrupsiyaviy xavflarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan profilaktik choralar amalga oshirilmoqda.

Ta’lim jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash maqsadida universitetda raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Xususan, “Elektron universitet”, digital.tsul.uz platformasi va boshqa raqamli yechimlar orqali ta’lim jarayonlarini avtomatlashtirish, inson omilini kamaytirish hamda korrupsiyaviy xavflarni minimallashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Biroq, korrupsiyaga qarshi kurashish faqatgina rahbariyatning yoki ichki nazorat bo‘limining vazifasi emas. Bu universitet jamoasining har bir

a’zosidan yuksak huquqiy madaniyat, halollik, mas’uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini talab etadigan umumiy burchdir.

Shu bois universitet jamoasi va talabalarini korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishga, xizmat vazifalarini halol, xolis va vijdonan bajarishga, korrupsiyaviy xatti-harakatlarga nisbatan befarq bo‘lmaslikka chaqiraman.

Agar universitet yoki uning huzuridagi tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy holatlar, manfaatlar to‘qnashuvi yoki boshqa qonunbuzarliklar haqida ma’lumotga ega bo‘lsangiz, bu haqda **(71) 233-49-02** raqamli Ishonch telefoni, **@tsul_anticorbot, @tsul_anonimbot** Telegram botlari yoki universitetning rasmiy veb-sayti orqali murojaat qilishingizni so‘rayman.

Murojaatingiz qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqiladi hamda tasdiqlangan korrupsion holatlar bo‘yicha keskin qonuniy choralar ko‘riladi.

O‘z navbatida, universitet tizimida mehnat qilayotgan har bir rahbar va xodim, shu jumladan, universitet talabalarini korrupsiya holatlarining har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishga hamda o‘z vazifalarini halol va xolis bajarishga yana bir bor chaqiraman.

Korrupsiyaga qarshi kurashish har birimizdan yuksak huquqiy ong, halollik, fuqarolik mas’uliyati va shaxsiy daxldorlikni talab etadi. Faqatgina barchamizning birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz orqali universitetimizda korrupsiyaga nisbatan mutlaqo murosasiz muhitni yanada mustahkamlash, qonuniylik va adolat tamoyillarini qaror toptirishimiz mumkin.